



## FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

- ✓ Ijtimoiy-ta'limiy
- ✓ Ilmiy-metodik
- ✓ Ilmiy-tadqiqot

**Ilmiy-metodik**  
**JURNAI**



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Sayidova Shahrizoda Nasrulloevna

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

## CHET TILINI O'QITISHDA KOMMUNIKATIV O'YINLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI

### Annotatsiya

Chet tilini o'qitishda kommunikativ o'yinlardan foydalanish zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish judayam yaxshi samara beradi. Mashg'ulotlarda kommunikativ o'yinlardan foydalanilsa, o'quvchilarda chet tilini o'rganishga faol qiziqish vujudga keladi va chet tiliga doir bilimlarni egallashga intilish kuchayadi. Bunday mashg'ulotda asosan o'quvchilar faolligi kuzatiladi, o'qituvchi esa ularni yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi.

**Kalit so'zlar:** ko'nikma, malaka, muloqot oldi faoliyatlari, konservativ metod, savol-javob, debatlar, funksional muloqot, monolog, dialog, polilogik nutq

Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or va ustivor uslublarini joriy etish, o'sib kelayotgan yosh avlodga chet tillarini puxta o'rgatish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxasislarni tayyorlash tizimi yanada takomillashtirilmoqda. Dars mashg'ulotlari davomida ta'limiy-kommunikativ o'yinlardan foydalanib ham o'quvchilar faolligini oshirish, ularning o'z ustida ishlashlariga imkoniyat yaratish mumkin bo'ladi. O'qitishning bu usullari ma'lum ma'noda dars uslubini o'zgartira oladi, o'quv jarayonida ijobiy natijaga erishishni ta'minlaydi. Shuningdek pedagogik texnologiya o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatiga asoslangan holda mustaqil fikrlash, o'quv materialini o'zlashtirishda faollikni ta'minlaydi.

Bugungi kunda chet tilini o'qitishning an'anaviy usullarining zaif tomonlari sababli til ko'nikmalarini egallashda bir qancha qiyinchiliklarni yuzaga keltirayotganligi kommunikativ o'yinlardan foydalanib chet tilini o'rganishni talab qilmoqda. Demak, chet

tilini o'qitishni isloh qilish va til ko'nikmalarini takomillashtirish borasida hali ko'p ish qilish kerak, desak xato bo'lmaydi. Shu sababli, tilni o'qitishning kommunikativ yondashuvini qo'llash usullarini muhokama qilish va ulardan o'rinli foydalanish hamda chet tili darslarida kommunikativ o'yinlardan foydalanish talabalarni kommunikativ bo'lgan sinf faoliyatiga jalb qilishning eng yaxshi usullaridan biri hisoblanadi. Til o'yinlari chet tilini o'rgatishdagi eng qimmatli va samarali usullardan biri sifatida ko'plab g'arb o'qituvchilari tomonidan uzoq vaqt davomida qo'llanilgan.

Chet tilini o'rganish o'ziga xos jarayon bo'lib, uning samaradorligi quyidagilarga bog'liq: – chet tilini o'qitish orqali ta'lim mazmunini tashkil qilgan aspektlarni, nutq faoliyati turlari (tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuv) ni yaxlit va izchillikda lingivistik kompetensiyaning asosi bo'lgan nutqiy kompetensiya tarkibida o'rgatish;

- lingivistik nutqiy (kommunikativ), til, pragmatik, sotsio-lingivistik va o'quv-kognitiv kompetensiyalarni shakllantirish;
- fanlararo integratsiya (o'quv fanlarining o'zaro aloqadorligi)ni tashkil qilish;
- nutq faoliyati turlari (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish) hamda shakllari (og'zaki va va yozma nutq) orasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'minlash maqsadida rivojlantiruvchi mushtarak tizimni ishlab chiqish;
- o'quvchilarga madaniyatlararo muloqotga xos bo'lgan urf-odatlarini singdirish bilan o'z xalqi madaniyatini chuqur anglab yetishga o'rgatib borishdan iborat. Zamon talablariga mos holda chet tillarini mukammal o'rganish har bir o'sib kelayotgan yosh uchun juda ham muhim. Chet tillarni bilish orqali yoshlarimiz xorijlik tengdoshlari bilan bemalol ilm-fanda raqobatlasha oladi, jahon sahniga chiqa oladi.

Chet tilini o'rganishda talabalarda muloqot faoliyatini olib borish qobiliyatini shakllantirishda va ularni jonli muloqotda qo'llash, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda quyidagi faoliyatlar qo'l kelishi va samara berishligi aniqlandi:

1. Muloqot oldi faoliyatlar ( pre – communicative activities ).
2. Muloqot davridagi faoliyatlari:
  - a) funksional muloqot faoliyatlari (functional communicative activities)
  - b) Ijtimoiy o'zaro kechadigan faoliyatlar
3. Muloqotdan keyingi faoliyatlar ( post communicative activities ) Bunday faoliyatlarning har birini o'ziga xos tomoni bo'lib, biri ikkinchisiga xizmat qiladi. Masalan: muloqot oldi faoliyatlar talabalardan muloqot birliklari (gap, sodda, qo'shma gaplarning qo'llanilishi haqidagi dastlabki bilimlarni bo'lishini taqozo etadi ). An'anaviy metodlardan farqli o'laroq, barcha mavjud metodlarning ijobiy hizmatlarning o'zida mujassamlashtirgan kommunikativ metod, jumladan, interfaol metod bilan dars berishganda ayniqsa, talabalar kommunikativ faoliyatini o'stirish maqsadida darslar o'zgacha tusda va ruhda, ya'ni zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda, ayniqsa, psixologiya, pedagogika va metodika fanlari yutuqlariga tayangan holda kommunikativ o'yinlar orqali chet tilida muloqotga o'rgatish asosiy vazifani tashkil etadi.

Asosiy e'tibor talabalar kommunikativ faoliyatini o'stirishga xizmat qiluvchi barcha faoliyatlarni o'ziga mujassamlashtirgan kommunikativ o'yinlar orqali talabalar nutqning muloqotga layoqatligi, muloqot strategiyasi kabi jihatlarini shakllantiruvchi ko'nikma va malakalar hosil qilish usuliyatini ishlab chiqishga urinishdir, chunki, bunday bilimlarsiz



muloqot olib borishning boshqa faoliyat turlarini amalga oshirib bo'lmaydi. Bunday faoliyatlarni amalga oshirishda o'qituvchi talabalardan bir qator til mashqlarini bajarishlarini tavsiya etadi va bunda yetishgandan so'ngina ikkinchi faoliyat turi, ya'ni muloqot davomida olib boriladigan faoliyatlarini amalga oshirishga kirishadi.

Muloqot davomida olib boriladigan faoliyatlar talabalarda jonli nutqni shakllantirishga, ularning muloqotga layoqatlilik jihatlarini va muloqot strategiyasining shakllantirishga xizmat qiladiki, bunda shartli nutq mashqlariga asosiy e'tibor beradi. Muloqot davomida olib boriladigan faoliyatlardan yana bir turi sof nutq faoliyatlari bo'lib, unda talabalar o'qituvchi nazoratida sof nutq mashqlari orqali erishadilar.

Shunisi e'tiborga moliyki barcha faoliyat turlari kechib borar ekan o'qituvchi faqatgina kommunikativ faoliyatini o'stirishda turli tuman faoliyatlar, o'yinlar jumladan monologik nutq orqali dialogik va polilogik (ikkitadan ortiq suhbatlash ishtirokida) nutq faoliyatlari barchasi u yoki bu darajada bir – birini to'ldirib, muloqotning to'laqonli va uzluksiz, eng muhim samarali kechishiga xizmat qiladi.

Bunday kommunikativ faoliyatlarni o'stirishda barcha faoliyatlar lingvo didaktik talablar darajasida amalga oshirilishi, ma'lum ko'zlangan asosiy maqsad - chet tilida erkin muloqot olib borishlik qobiliyatini shakllantirishga muntazam tayyorlaydi.

O'qituvchi kuzatuvchi, nazoratchi, yoki boshqaruvchi vazifasini bajaradi, talabalar esa barcha faoliyatlarning ham ob'ekti, ham ijrochisi, ham ko'zatuvcisi, ham baholovchisi bo'lib, muloqotning markazini figuralariga aylanadilar.

Bunday kommunikativ o'yinlarning yana bir afzal tomoni shundaki talabalarda muloqot erkinligi, o'zaro hamkorlik, o'zaro hurmat, o'zaro mas'uliyatlik va o'zaro javobgarlik hislari shakllanadiki, bunday hissiyotlar majmuasi ularga nafaqat chet tilini o'qitishda, hayotda ham qo'l keladi va katta samaralar berishi tabiiy.

Talabalar kommunikativ faoliyatini shakllantirishda asosiy omillarda biri obdon o'ylanib tuzilgan kommunikativ o'yinlar tizimidir. Bunday o'yinlar tizimi uch xil o'yinlarni o'z ichiga oladi.

1. Til ko'nikmalarini shakllantiruvchi o'yinlar
2. Nutq ko'nikmalarini rivojlantiruvchi o'yinlar
3. Muloqot ko'nikmalarini shakllantiruvchi, o'stiruvchi o'yinlar Har bir o'yin turini o'ziga xos o'rni va kommunikativ faoliyat olib borishda o'ziga xos ahamiyati bor.

Kommunikativ o'yinlar talabalarda muloqot birliklari bo'lgan gaplar (sodda, qo'shma gaplar) ning qurilishi bilan, ularning kesimlarida qo'llaniladigan fe'l shakllarini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan barcha faoliyatlarini o'z ichiga oladi. Bu birinchi bosqichda muhim ahamiyatga ega. Demak, talabalar kommunikativ faoliyatini o'stirishda til mashqlari “muloqot oldi faoliyati (pre – communicative activities)” olib borishda muhim omil bo'lib sanaladi. Talabalar kommunikativ faoliyatini o'stirishda ikkinchi etapida” muloqot davomidagi faoliyatlar (during communicative activities)” muhim o'rin tutadi.

Aynan mana shu bosqichda talabalarda muloqotga layoqatlilik qobiliyati, muloqot yuritish uslubi (yo'l – yo'riqlari), ya'ni muloqot strategiyasi shakllanadi. Bunday bosqichda “shartli nutq mashqlari (conditional speech exercises)” muhim ahamiyat kasb etadi, natijada talabalarda muloqotga layoqatlilik, muloqot strategiyasi kabi omillar shakllanib, talabalar erkin muloqot olib borishga ko'nikma va malakalarini talab darajasida shakllantirib oladilar.



Bunday mashqlarni asosan dialogik, polilogik nutqlarga asoslanib tuzilishi va talabalar tomonidan nafaqat tilda muloqot olib borishni balki, muloqot madaniyatining muntazam shakllanishiga olib keladi.

Talabalar kommunikativ faoliyatini o`stirishning uchinchi bosqichida talabalar sof nutq mashqlari orqali hayotiy mavzular yuzasida fikr almashib, baxslashish, fikrlarini ma`qullash yoki rad etishdek muloqot o`yinlarini amalga oshiradilarki, chet tilida bunday faoliyatlar olib borish ularda ehtiyojga aylanib qoladi.

Barcha faoliyatlar turlari bilan ish ko`rganda talabalar bevosita muloqot vositalari bo`lmish gaplar, jumladan sodda va qo`shma gaplardan unumli va o`rinli foydalanadilarki, ular muloqotdan o`zlari ham zavq, ham taskin topadilar.

Bunday faoliyatlar uchun mo`ljallangan har uch mashq turlarining o`z bosqichida va o`rniga ko`ra qo`llanilishi talabalar kommunikativ faoliyatini o`stirishda izchillikni va muntazamlikni ta`minlaydi, chet tilini o`qitishdan ko`zda tutilgan muddaoga erishishni kafolatlaydi.

Chet tili fani to`rt aspektga (o`qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish) bo`linib, ularning har biri bo`yicha alohida tushuncha va ko`nikmalar berilmoqda. Bugungi kunda innavatsion ta`lim texnologiyalarining bir necha xil usullari mavjud. Ulardan darslarda mavzuni yoritishda keng va turli usullaridan foydalanilsa, darsning samaradorligi yuqori bo`ladi va o`quvchilarning darsga bo`lgan qiziqishlarining ortishi ham ta`minlanadi. Ta`lim jarayoniga yangiliklarni olib kirish va ularni tadbiiq qilish orqali ta`lim samaradorligini oshirish nazarda tutiladi. Chet tili darslarining o`qitilishida turli rolli, harakatli o`yinlardan foydalanish ham darsga ham til o`rganishga bo`lgan qiziqishni ortishiga sabab bo`ladi. O`quvchilarning juft yoki kichik guruhlarda ishlashlari orqali esa o`quvchilarning boshqalar bilan kommunikativ aloqa qilishlari uchun yordam beradi. Ta`lim jarayonida grafik organayzerlardan foydalanish mavzuni yoritishda, uni o`quvchilarga yetkazib berishda eng muhim visitalardan hisoblanadi. Chet tilini o`rganishga ehtiyoj yuqori bo`lgan bir davrda, ta`lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan, innavatsion ta`lim texnologiyalaridan unumli foydalanish bu jarayonni samarali bo`lishiga olib keladi. Innavatsion ta`lim texnologiyalarning samaradorligi ularning ta`lim jarayonida to`g`ri va unumli foydalanilganidadir.

Og`zaki kommunikativ faoliyatning biri xulosaga kelishdir. Til o`rganuvchi barcha turdagi malakalarni o`qish, yozish, gapirish, tinglashni xulosa qilish orqali bilishi mumkin. O`rganishning barcha usullari til o`rganuvchilar ko`rib, eshitib, ushlab, bajarib o`rganish shakllarida ishtirok etishlari mumkin. Shuning uchun ham bunday faoliyatlar katta uslubiy ahamiyat kasb etadi.

Bu faoliyat til o`rganishning ilk bosqichlarida ham qo`llanishi mumkin. Bilim darajasi yuqori bo`lgan guruhlarda uni yanada murakkablashtirish uchun ijodiy ishlar tashkil qilinishi ham foydadan holi emas. Bizningcha, bunday faoliyatlar til o`rganuvchilar uchun ijodiy muhit yaratib beradi.

Yozma nutqni o`stirish jarayonida o`quvchilar turli xil boshqotirmalarni yechish, kerakli so`zlarni izlab topish, turli o`yinli mashqlarni bajarishlari mumkin. O`yinlar tovushli va musiqali bo`lib, o`quvchilar bunday topshiriqlarni katta qiziqish bilan bajaradilar va mshg`ulotlarda faol ishtirok etadilar. Hatto o`zlashtirishi past o`quvchilar ham o`z qobiliyatlarini namoyon etishga harakat qiladilar. Umuman, chet tili mashg`ulotlarini o`yin shaklida olib borish o`qituvchiga keng imkoniyatlar eshigini ochadi. Ya`ni puxta bilim

berish, tinglovchining diqqatini dars davomida ushlab turish kabi. Shuning uchun ham tajribali pedagoglar o'qitish jarayonida o'yinlarning samaradorligini ta'kidlashadi. O'yinlar ijobiy natijaga erishishga yo'naltirilgan bo'lib, grammatik materialni kommunikativ matnda va jadvallarda mustahkamlab olishga yordam beradi.

Mashg'ulotlarda o'yinlardan foydalanilsa, o'quvchilarda chet tilini o'rganishga faol qiziqish vujudga keladi, bilimlarni egallashga intilish kuchayadi. Bunday mashg'ulotda asosan o'quvchilar faolligi kuzatiladi, o'qituvchi esa ularni yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi.

2013-yildan boshlab 1-sinfdan boshlab barcha ta'lim muassasalarida chet tilini o'qitish yo'lga qo'yildi. Til o'rganish jarayonida, bolaning psixofiziologik holati muhim ahamiyat kasb etishi sir emas. 1-sinf bolaning dars mobaynida charchashi, holdan toyishi yoki zerikishi tabiiy holatlardan biri hisoblanadi.

1-sinfdan boshlab chet tillarini o'rganishda o'quvchilarning yoshi, psixofiziologik xususiyatlari, dastur mavzularini o'zlashtirishdagi holatlarini e'tiborga olish va bilish psixik jarayonlarini rivojlantirish bo'yicha psixologlar tomonidan bir qancha ishlar amalga oshirib kelinmoqda. "1-sinf o'quvchilariga chet tillarini o'qitish bo'yicha metodik tavsiyalar" ishlab chiqilgan. O'quvchilarda kommunikativ (chet tilida muloqot qilish muhitini yaratish) qobiliyatlar hamda bilish jarayonlarining (sezgi, xotira, tafakkur, xayol) rivojlantirilganligi, dars jarayonida psixofiziologik holatlarning (charchash, zerikish, chalg'ish) inobatga olingani, dars samaradorligini oshirishda o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirishi uchun qo'shimcha vositalardan (masalan, musiqa va harakatli o'yinlardan) foydalanilganligi, predmetli va predmetsiz, syujetli, rolli o'yinlar, stol ustida, xonada o'ynaladigan o'yinlar, kompyuter yoki boshqa texnika, shuningdek, turli harakatlanish vositalari yordamida o'ynaladigan o'yinlardan foydalanilganligi kabi jihatlar o'rin olgan. Shuningdek dars jarayonida o'qituvchi o'z o'quvchilarining quyidagi vaziyatlariga e'tibor qaratishi lozim.

- tortinchoqlik va zo'riqish kabi holatlaridan xoli bo'lgan vaziyatlarini tashkil etishi;
- shaxslararo munosabat muhitini yaratishi;
- o'quv materialining o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi;
- chet tilini o'rganish jarayonida hissiy zo'riqishga yo'l qo'ymaslik uchun relaksatsiya mashqlaridan foydalanishi;
- katta hajmdagi axborotni idrok qilishda o'quvchilar malaka va ko'nikmalarining rivojlantirilganlik kabi masalalarini e'tiborga olish.

Dars mashg'ulotlarida berilgan o'yinlar, ta'lim maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda tanlangan va uni chet tillari darslarning har birida qo'llash mumkin. O'yin mashqlari dars samaradorligini oshiradi, darslik majmualaridagi materiallarning o'quvchilar tomonidan tez va oson o'zlashtirilishiga yordam beradi, chunki o'yinlar 6-8 yoshli bolalar uchun yetakchi faoliyat turi hisoblanadi. Bolaning lug'at boyligi faollashib, noan'anaviy kommunikativ vaziyatda bilimlarni qo'llash maqsadi shakllanadi. Psixologik o'yin mashqlari treninglar orqali o'quvchilardagi ixtiyorsiz diqqat ixtiyoriy diqqat turi bilan barqarorlashtiriladi. Idrok, sezgi, mantiqiy tafakkur hamda ko'rish, eshitish va tez esda saqlab qolish kabi xotira turlari rivojlantiriladi.

Bu borada boshlang'ich sinflarda chet tilini o'qitish va o'rgatish tizimini rivojlantirish bo'yicha quyidagilarga e'tibor qaratish lozim, deb o'ylayman:



- 1-sinfdan boshlab chet tilini o'rgatishda o'yin usulidan foydalanish samarali bo'lib, bunda o'quvchining kommunikativ ko'nikmalari rivojlanadi;
- O'yin alohida tashkil etilgan mashg'ulot bo'lib, bunda bolaning emotsional his-tuyg'ulari va aqliy imkoniyatlarining safarbar etilishini, biror bir qaror qabul qilishni – qanday yo'l tutish, fikr bildirish, qanday qilib yutuqqa erishish kabi vazifalarni amalga oshirish kerak, deb o'ylayman.

Bu vazifalarni amalga oshirish bolaning fikrlash qobiliyatini jadallashtiradi. Agar bola chet tilida gapirsa, bu ta'limiy imkoniyatlarni yanada kengaytiradi. Bolalar o'zlari o'ylamagan tarzda chet tilini o'rgana boshlaydilar. O'yin bolalar uchun juda qiziqarli mashg'ulot bo'lib, bunda a'lochi o'quvchi ham, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchi ham teng ishtirok etadi. Bundan tashqari, chet tilini sust o'zlashtirgan o'quvchi o'yinda birinchi bo'lishi mumkin, hamma bilan tengligini his qilish, quvonch va zavq muhiti, vazifalarni bajarishdagi osonlik – bularning hammasi nutqda notanish tilda so'zlashishdagi tortinchoqlikni yengishga yordam beradi va ta'lim natijalariga ijobiy ta'sir o'tkazadi.

Shu bilan birga, chet tiliga oid material oson o'zlashtirilib, bolada “men boshqalar qatorida chet tilida gapira olaman”, degan qoniqish hissi paydo bo'ladi. O'yinlar orqali o'quvchilarning lug'at boyligi oshiriladi, kommunikativ qobiliyatlar, ijodiy tashabbuskorlik hamda ko'nikma va malakalar rivojlantiriladi. Kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishda qo'shiqlardan foydalanish mumkin. Qo'shiqlarning nima haqida ekanligi o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lib, yod olganda ular yangi ma'lumotga ega bo'lishadi va bilish qobiliyati kuchayadi. Qo'shiqlardan foydalanish talaffuz ko'nikmalarini takomillashtirishga, artikulyatsiya (talaffuzda, so'zlashda, nutq a'zolarining holati, harkati, ishi) ritmika va intonatsiyada aniqlikka erishish, ingliz tili bo'yicha bilimlarni mustahkamlash, so'z boyligini oshirishga yordam beradi. Monologik va diologik tarzda fikr bildirishga o'rgatadi, tayyor va spontan (o'z o'zidan paydo bo'lgan) nutqni rivojlantiradi. Bundan tashqari, qo'shiq til o'rganish jarayoniga bayramona ruh, noan'anaviy yondashuvni olib kirib, o'quvchilarning emotsionalsohasiga ijobiy ta'sir o'tkazadi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, chet tili bo'yich maxsus mashqlarni 4 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalarga o'rgatish ijobiy natija beradi.

Chet tili o'rganish bo'yich turli xil usul va shakllar mavjud bo'lsa-da, 1-sinflarda bu jarayon qiyinroq kechishi mumkin. Ularning tez charchashi diqqatining ixtiyorsizligi, eslab qolish darajasi hali yetarli darajada rivojlanmagani yoshi va ruhiyatiga xosdir. 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarga chet tilini o'rgatishda o'yinning imkoniyatlari keng bo'lib, belgilangan mavzu bo'yicha talab etilayotgan bilim, malaka va ko'nikmaga erishishning oson yo'lidir. Chet tilini o'rgatishning boshlang'ich davrida darsda turli raqs harakatlaridan iborat bo'lgan jismoniy o'yinlardan foydalanish mumkin. Bunda o'quvchilar oldiga bu harakatning nomini eslab qolish maqsadi qo'yilishi kerak. O'quvchilar o'zlarini erkin tutishlari, o'qituvchi bilan birga darsni qiziqarli o'tishiga harakat qilishlari kerak, chunki ularning ingliz tilida muloqot qilishga tayyorligi va o'z istaklarini bildirishi ushbu tildagi muloqot imkoniyatlarini kengaytiradi.

Chet tillarni o'rganishda mustahkam kommunikativ bilim, ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishda kommunikativ o'yinlardan foydalanishning ahamiyati juda katta. Chet tilini o'rganishda an'anaviy yondashuvga ko'ra tarjima qilish orqali o'rganish, grammatik yoki nazariy ma'lumotlarni o'rganish yaxshi samara bergan bo'lsada, til o'rganuvchilarning haqiqiy hayotda chet tilida muloqotga kirishishlarida juda ko'pgina muammolarga duch





kelishdi. Tayyor dialoglarni yodlash talabalarni mustaqil muloqot tuzishlarida va uni og'zaki nutqda qo'llashlarida ko'makchi bo'la olmadi.

Chet tilini o'rganishda asosan tayyor matnlar olinib, undagi yangi so'zlar ustida ishlanadi, tarjima qilinadi va yod olinadi, ko'pgina mashg'ulotlar grammatik mavzularni o'rgatishga qaratilgan bo'lib, mavzu yuzasidan mashqlar bajariladi, gaplar tuziladi. Bunday o'rganishda til o'rganuvchilar til juda yaxshi o'zlashtira oladilar, mustaqil ravishda matnlar tuza oladilar va har qanday ma'ulotni yaxshigina qabul qila oladilar. O'rganiladigan materiallarning asosiy qismi haqiqiy hayotdan olinmaganligi sababli ham til o'rganuvchilar tilni faqatgina qabul qila oladilar xolos. Til o'rganishda o'rganilgan ma'ulotlardan real hayotda foydalana olish qobiliyatiga ega bo'lish ko'pgina imkoniyatlar yaratadi.

Talabalarga chet tillarni o'qitish jarayonida kommunikativ ko'nikmalarni hosil qilish, ularni rivojlantirish va muloqot qila olishga talabalarda qiziqishni orttirish uchun odatda o'qishni mashg'ulotlar davomida foydalaniladigan kommunikativ o'yinlarni qo'llanilganida samarali ekanligini ko'rsatishdir. Buni isbotlash uchun "Debatlar", "Savol-javob" va "Rol ijro etish" kommunikativ o'yinlaridan foydalanilgan holda bir guruh talabalar bilan eksperimental dars o'tkazildi. Sanab o'tilgan uchchala kommunikativ o'yinlar ham nutqni ya'ni so'zlashish qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, chet tilida so'zlashish ko'nikmalarini yaxshi shakllantira oladi. Lekin loyiha ishi davomida ushbu uchta metodga asoslanib, muloqot qilish tajribasini rivojlantirishga qaratilgan maxsus topshiriqlar ishlab chiqildi va 18 ta talabadan tashkil topgan guruh bilan ushbu metodlar mashg'ulotda sinovdan o'tkazildi. Metodlar qo'llanilishining amaliy samaradorligini tahlil qilish uchun dars mobaynida talabalar faolligi baholandi va ularning aktiv ishtiroki hamda qiziqishi video tasvirga olindi.

"Savol-javob" metodi ishlatilganda talabalar qiziqish bilan ishga kirishib, har bir talaba mavzu yuzasidan savollarga o'z fikrini bildirish orqali javob berishdi. Video tasvirdan ko'rinib turibdiki, bu vazifani bajarishda barcha faol ishtirok etishga va har bir ishtirokchi o'z guruhining g'olib chiqishiga bor kuchini sarfladi. Natijada mashg'ulot davomida har bir talaba ishtirok etishga harakat qildi. Xullas, kommunikativ o'yinning asosiy maqsadi bo'lgan talabalarni muloqot qilish ko'nikmalarni hosil qilishga erishildi.

Ikkinchi kommunikativ o'yin – "Debatlar" murakkabroq metod bo'lib, talabalardan nafaqat muloqot qilish, balki berilgan mavzu ustida muzokara va tanqidiy tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga ham chorlaydi. Ushbu metodda ishtirokchilar uchun bahsda asosli ravishda g'olib chiqish qo'shimcha motivatsiya bo'ladi. Video tasvirlardan ko'rinib turganidek, nutqlarining ta'sirchanligini orttirish va dalillarini kuchaytirish uchun talabalar haqiqiy hayotiy misollarni keltirishdi. Bu esa til ko'nikmalarini rivojlantirishning eng samarali usulidir. Bu metodning yana bir muhim jihati shundaki, bu metod ishlatilganda talabalar o'z nuqtai nazarini mustaqil, omma oldida ifoda etish tajribasiga ega bo'ladilar.

Oxirgi qo'llanilgan metod "Rol ijro etish" o'yini bo'lib, unda talabalardan real hayotda kuzatish mumkin bo'lgan voqea-hodisalarni ifodlab berish talab etilgan edi. Bu metod talabalar uchun eng qiziqarli bo'lib, ishtirokchilarning diqqatini o'ziga to'liq jalb etdi. Tajribadan ma'lum bo'lganidek, artistik qobiliyat talab qilinganda talabalarining o'rganishga bo'lgan istaklari ancha oshadi. Muloqotning ancha qiziqarli o'tishi uchun dolzarb bo'lgan masala olinishi kerak. Zerikarli mavzular tanlanganda ishtirokchilarning faollik darajasi keskin pasayadi. Eksperimental dars davomida qo'llanilgan mavzu barchada qiziqish o'yg'otganligi video tasvirlarda yaqqol namoyon bo'lib turibdi.



Xulosa qilib aytganda, talabalarda o'qish ko'nikmalarini hosil qilishda odatda qo'llaniladigan konservativ metodlar bilan bir qatorda ilg'or, kommunikativ o'yinlardan ham foydalanish til ko'nikmalarini kutilgandan ko'ra tezroq rivojlantira oladi. Eksperimental dars davomida ushbu metodlarning ayrimlari talabalarni o'qishga qiziqishlarini jiddiy orttirib, o'rganilayotgan matnni o'qib anglashga samarali turtki ekanligini isbotlab berdi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining PQ-3775 sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risidagi" qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22 dekabr 2017 yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1875 sonli Qarori
4. Brumlit, C. From Defining to Designing: Communicative Specifications Versus Communicative Methodology in Foreign Language Teaching. Oxford University Press, Oxford, 1980.
5. Harmer, Jeremy, The practice of English Language Teaching, Essex: Longman 1991, 296 page.
6. Johnson, K. The Communicative Approach to Language Teaching. Oxford University Press, Oxford, 1979.
7. Jack Richards, Approaches and methods in language teaching, Cambridge University Press, 2001, 256 p
8. Praveen Jain, "English language teaching", Malaysia, 2005, 125p
9. Sciencedirect.com. Summaira Sarfraz, Zahida Mansoor, Raheela Tariq.
10. Procedia-Social and Behavioral Sciences, Volume 199,3. August 2015, pages 730-736. Teacher's and Student's Perception of the Communicative Language Teaching Methodology in the Call Environment: A case study.
11. Sciencedirect.com. Elvira Ya, Sokolova, Ekaterina A, Golovacheva, Anastassiya A. Chernaya. Procedia- Social and Behavioral Sciences, Volume 215,8, December 2015, pages 191-195. Professionally-Oriented Communicative Language Teaching Approach by the Design of a Computer Assisted ESP Course: Analysis of Results.